

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹

2025-yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025-yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalr natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **12 584,7** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,9 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 284,2** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024-yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi **10 300,5** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **110,3 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan (**3 571,1** ming so'm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **691,0** ming so'mga yoki **19,3 %** ga o'sib, **4 262,1** ming so'mni tashkil etgan.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 225,3** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiylajmaining **73,3 %** ini, jumladan, **38,6 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹2024-yil yanvar-may oylari hajmi va 2025-yil yanvar-may oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvalr natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025-yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	12584,7	100,0	111,9
Termiz shahar	2489,1	29,1	115,2
<i>Tumanlar:</i>			
Oltinsoy tumani	326,3	3,8	109,6
Angor tumani	352,2	4,1	112,9
Bandixon tumani	189,6	2,2	111,1
Boysun tumani	265,0	3,1	111,7
Denov tumani	366,8	4,3	111,0
Jarqo'rg'on tumani	1117,0	13,1	114,6
Muzrabot tumani	473,7	5,5	110,8
Qiziriq tumani	513,2	6,0	112,0
Qumqo'rg'on tumani	304,6	3,6	111,0
Sariosiyo tumani	502,9	5,9	112,8
Termiz tumani	398,1	4,7	113,4
Uzun tumani	344,7	4,0	111,3
Sherobod tumani	457,9	5,4	113,4
Sho'rchi tumani	444,2	5,2	112,3

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-martdag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **11,2 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining o'sishiga hissasi **1,6** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **11,5 %** ga (o'sishiga hissasi **1,5** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **8,5 %** ga (o'sishiga hissasi **2,3** band), savdo xizmatlari **10,4 %** ga (o'sishiga hissasi **2,6** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **15,7 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,7** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **7,8 %** ga (o'sishiga hissasi **0,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-may)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, % da
	2024-y.	2025-y.	
Xizmatlar – jami	10 300,5	12 584,7	111,9
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	432,8	552,9	115,7
moliyaviy xizmatlar	1 528,6	1 745,8	111,1
transport xizmatlari	1 253,4	1 544,9	111,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
	1 124,0	1 376,3	111,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 768,8	3 332,3	108,5
savdo xizmatlari	2 546,0	2 963,5	110,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	193,6	231,1	107,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	353,9	553,7	135,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	147,7	197,4	97,0
ijara xizmatlari	138,3	201,8	132,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	242,0	298,2	110,0
shaxsiy xizmatlari	253,9	328,3	110,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	88,7	156	159,7
boshqa xizmatlar	352,8	478,8	117,1


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,5 %**, savdo xizmatlari **23,5 %**, moliyaviy xizmatlar **13,9 %**, transport xizmatlari **12,3 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,4 %**, boshqa xizmatlar esa **3,8 %** ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiyligi hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,9 %**, savdo xizmatlari **24,7 %**, moliyaviy xizmatlar **14,8 %**, transport xizmatlari **12,2 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,2 %**, boshqa xizmatlar esa **3,4 %** ulushini tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025-yil yanvar-may % da**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdag'i xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **82,2** foizni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan esa **16,0** foizga o'sgan.

2025-yilning yanvar-may oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan hajmi **95,3** mlrd so'mga yoki **11,6** foizga o'sishi kuzatilgan.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari** (117,6 %), **pochta va kuryerlik** (121,2 %) **xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyoohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi **96,8 %** ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot(ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu- xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlaribo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining bat afsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
*Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi*

Manzil: 180100, Surxondaryo viloyati, At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
Pochta:info@surxonstat.uz Tel.:
75-90, 55-541-80-00

